

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

No1
MAXSUS SON

2026

YANVAR



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX
COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

**BAKALAVR
TALABALARINIG
MAQOLALARI
TO'PLAMI**

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 39 sahifa,
yanvar, 2026-yil.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayeich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellash
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIDA MOLIYAVIY VOSITACHILARNING AHAMIYATI.....	8
Sattorova Mehriniso Komil qizi, Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li	
ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ КУЛЬТУРНОГО ТУРИЗМА В САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ.....	11
Уракулов Аббос Жасур угли, Сафарова Сабина Сирожиддиновна, Санакулов Шахзод Мансур угли, Саттарова Зухра Илхомовна	
TIJORAT BANKLARIDA KAPITAL SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	17
Karimov Diyor Umidjon o'g'li, Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li	
IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA STARTAP LOYIHALARNI QO'LLAB-QUVVATLASHNING MUHIM JIHATLARI	21
Abdullayev Firdavs Odiljon o'g'li, Ergashov Sherzod Abduxoliq o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGI MAXSULOTLARINI YETISHTIRISHDA IQLIM O'ZGARISHIGA MOSLASHISH BO'YICHA XALQARO TAJRIBA.....	27
Boratov Alijon Xolisboy o'g'li, Rasulova Muslimahon, Qo'ziboyeva Ozodxon Maxmudovna	
JAHON MOLIYAVIY TIZIMIDA RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLARGA KAPITAL OQIMINI BAHOLASH	31
Boboqulov Samandar Shavkat o'g'li, X.X.Rejapov	



JAHON MOLİYAVIY TIZIMIDA RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLARGA KAPITAL OQIMINI BAHOLASH

Boboqulov Samandar Shavkat o'g'li

O'zMU Iqtisodiyot fakulteti 3-kurs talabsi
samandarbobobuqulov2005@gmail.com
orcid.org/0009-0000-6360-5515

Ilmiy rahbar:

X.X.Rejapov

OzMU, Moliya va kredit kafedrasi mudiri
i.f.d., professor
hayrillo0606@mail.ru
ORSID: 0000-0001-5403-9400

Annotatsiya: Ushbu maqolada Jahon moliyaviy tizimida rivojlanayotgan davlatlarda kapital oqimining harakati tahlil qilingan. Investitsiyalarning oqimiga ta'sir qiluvchi va ularning xavf soluvchi omillar keltirib o'tilgan. Rivojlanayotgan davlat - O'zbekiston misolida mamlakatga kapital kiritishni rag'batlantiruvchi siyosatidan misollar keltirilgan va mavjud xavflarni kamaytirish uchun xulosa va takliflar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: kapital oqimi, investitsiya, investitsion xavf, iqtisodiy o'sish, siyosiy vaziyat, valyuta diversifikatsiyasi.

Abstract: This article analyzes the movement of capital flows in developing countries within the global financial system. Factors influencing the flow of investments and their risks are listed. In the example of a developing country - Uzbekistan, examples of a policy of stimulating capital investment in the country are given, and conclusions and recommendations for reducing existing risks are given.

Keywords: capital flow, investment, investment risk, economic growth, political situation, currency diversification.

Аннотация: В данной статье анализируется движение потока капитала в развивающихся странах мировой финансовой системы. Приведены факторы, влияющие на приток инвестиций и их риски. На примере развивающейся страны - Узбекистана приведены примеры политики, стимулирующей вложение капитала в страну, а также представлены выводы и предложения по снижению существующих рисков.

Ключевые слова: капитальный поток, инвестиции, инвестиционный риск, экономический рост, политическая ситуация, валютная диверсификация.

KIRISH

Hozirgi dunyo siyosati sharoitida deyarli barcha kapitalistlar o'z sarmoyalarini xavfsiz hududga kiritish maqsadida mamlakatlarning iqtisodiy va moliyaviy holatini chuqur o'rganishmoqda. Oxirgi 3-4 yilda rivojlanishni tezlashtirish uchun kerak bo'ladigan kapital rivojlanayotgan mamlakatlardan tashqariga ko'p miqdorda chiqa boshladi, kirish esa kamaydi. Pandemiya davridan oldin esa, rivojlanayotgan davlatlarga kapital oqimi nisbatan yuqori edi. Ko'pchilik mutaxassislar ushbu vaziyatni hozirgi tahlikali siyosiy vaziyatda to'g'ri va xavfsiz deb bilishadi. Biroq, ularning fikri ayrim rivojlanayotgan davlatlar uchun noo'rin hisoblanadi. Tadqiqotni amalga oshirishdan maqsad, hozirgi siyosiy vaziyatda barcha rivojlanayotgan mamlakatlarga kapital oqimining yo'nalganligi xavfi yuqori emasligini nazariy isbotlashdir.

Mamlakatlarga kiritilayotgan kapitalning oqimi mamlakatlarning asosan iqtisodiy, moliyaviy sohalarining barqaror rivojlanishi, siyosiy, ijtimoiy va ekologik holatining barqarorligi va institutlarning samarali faoliyati darajasiga qarab ortishi, aks holda mamlakatdan kapitalning qochishi darajasiga ham borishi mumkin. Rivojlanayotgan davlatlarning foiz stavkasi, xalqaro foiz stavkasidan farqliligi, inflyatsiya darajasi, valyuta kursi,

bozorlarda raqobat pastligi, mamlakatning iqtisodiy o'sish sur'atlari rivojlangan mamlakatlarnikiga qaranganda yuqoriligi, iste'mol bozirdagi aholining o'rtacha yoshi, korrupsiya darajasi va shunga o'xshash bir qancha omillar kapital egalari o'z kapitali uchun munosib joy tanlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Siyosiy vaziyatlarning keskinlashuvi, rivojlangan mamlakatlarning sanksiya siyosati va ayrim savdo yo'llarining yopilishi jahon moliya tizimida jiddiy o'zgarishlarga olib keldi. Ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiyoti uchun muhim bo'lgan chetdan kirib keluvchi kapitalning hajmiga jiddiy xavf tug'dirdi. Hozirgi vaqtda rivojlanayotgan mamlakatlar o'zlariga kapital oqimini qayta tiklash, hamda investitsiya jozibadorligini shakllantirish jadal davom etmoqda. Maqolani yozishdan maqsad, hozirda ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarga investitsiya kiritish o'z samarasini berishini isbotlash va shu orqali investitsiyalarni oqimlarini rivojlanayotgan mamlakatlarga kiritishni kuchaytirishdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida mamlakatda 250 milliard dollarlik investitsiyalarni o'zlashtirish, jumladan 110 milliard dollar xorijiy investitsiyalar va 30 milliard dollar davlat-xususiy sheriklik doirasidagi investitsiyalarni jalb qilish, Yevropa mamlakatlari, Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi davlatlar va Amerika mamlakatlari, xususan, AQSH bilan investitsiyalar oqimini oshirish strategik maqsad qilib belgilangan. Rivojlanayotgan mamlakatlarning yuqoridagi say harakatlari mavzuning yuqori darajada dolzarb ekanligidan dalolat beradi.

MAVZU YUZASIDAN ADABIYOTLAR TAHLILI

So'nggi yillarda kapital oqimining o'zgarishi xalqaro moliya tizimiga ta'siri masalasi ko'plab xalqaro tashkilotlar va olimlar tomonidan keng tadqiq etilmoqda. Masalan, Xalqaro Valyuta Fondi (XVF)ning 2025-yil oktyabr oyidagi Global Moliyaviy Barqarorlik Hisoboti (Global Financial Stability Report (GFSR)), "Tinchlik ostida o'zgarish (Shifting Ground beneath the Calm)" da global moliyaviy barqarorlik xavfi, bozor holatini baholangan, siyosiy vaziyatlarning moliya tizimidagi kapital harakatiga ta'siri va kapitalning rivojlanayotgan mamlakatlardan qochishiga izohlar berilgan.²

Ko'plab xorijlik olimlar kapital oqimining o'zgarishini mamlakatlarning iqtisodiy xavfsizligi va siyosiy taranglikka bog'lagan holda tushuntirishgan. Masalan: Raghuram Rajan sobiq IMF bosh iqtisodchisi, Hindiston Markaziy banki rahbari Rohit Lamba o'zlarining "Breaking the Mold: India's Untraveled Path to Prosperity" kitobi va "Foreign Capital and Economic Growth"³ maqolasida rivojlanayotgan mamlakatlarga yo'naltirilgan xorijiy kapitalning hajmiga ta'sir qiluvchi xatarlardan biri, ya'ni mamlakatlarning "absorbtsiya" qobiliyati o'rganilgan. Ayrim mamlakatlar (masalan, Hindiston) xorijiy kapitalga kamroq qaram bo'lib, ichki institutlarni mustahkamlaydi, aks holda to'satdan to'xtash inqirozi yuzaga kelishini nazarda tutgan. Biroq, ushbu xulosaning kamchiligi shundaki, muallif Hindiston va Xitoyga urg'u bergan, ammo Markaziy Osiyo (masalan, O'zbekiston) kabi resursga boy va institutsional jihatdan rivojlanishni yildan-yilga kuchaytirib borayotgan davlatlarda inobatga olinmagan. Shuningdek iqtisodiyotning o'sish koeffitsiyenti yuqoriligi qarz yuklamasini belgilangan chegaradan oshirishi mumkinligi sababli rivojlanayotgan mamlakatlar ham investitsiyani yuqori darajada va xavfsiz qabul qila olishi, inqiroz holatida himoya yostiqchasi baquvvatligi hisobiga qiyin vaziyatdan katta talofatsiz chiqishi mumkinligi inobatga olinmagan.

Xuddi shunday, Daron Acemoglu MIT professori, 2024 Nobel mukofoti sohibi James Robinsonning "Why Nations Fail: The Origins of Power, Prosperity, and Poverty"⁴ kitobida rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida kapitalning muvaffaqiyatli harakati "inklyuziv" institutlarga (asosan mulk huquqi va innovatsiyalarni rag'batlantirishga) bog'liqligini, "ekstraktiv" (elitlar nazorati) institutlar esa o'sishni sekinlashtirishi va kapital oqimi pasayishi sababli mamlakatda iqtisodiy o'sish sur'atlari pasayishiga olib kelishi ta'kidlangan. Lekin, institutsional islohotlarini, shu bilan birga korrupsiyaga qarshi siyosatini yildan-yilga takomillashtirayotgan rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy o'sish yuqori ekanligini inobatga olgan holda, ularga yo'naltirilgan kapital oqimi o'zini oqlashi mumkin.

Shuningdek, Nobel mukofoti laureati Jozef Stiglitsning "Globalization and Its Discontents Revisited"⁵ kitobi va "Closing the capital drain from emerging markets"⁶ maqolasida rivojlanayotgan davlatlarda kapital

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-6600413>

2 International Monetary Fund. 2025. Global Financial Stability Report: Shifting Ground beneath the Calm. Washington, DC, October, <https://www.imf.org/-/media/files/publications/gfsr/2025/october/english/text.pdf>

3 Prasad, E. S., Rajan, R. G., & Subramanian, A. (2007). Foreign capital and economic growth. Brookings Papers on Economic Activity, 38(1), 153–230. <https://www.piie.com/sites/default/files/publications/papers/subramanian0407.pdf>

4 Acemoglu, D., & Robinson, J. A. (2012). Why nations fail: The origins of power, prosperity, and poverty. New York: Crown Business. https://www.researchgate.net/publication/254939196_Why_Nations_Fail_The_Origins_of_Power_Prosperty_and_Poverty_review

5 Stiglitz, J. E. (2017). "Globalization and Its Discontents Revisited". New York: W. W. Norton & Company. <https://cgt.columbia.edu/research/books/archive/globalization-discontents-revisited/>

6 Stiglitz, J. E., & Rashid, H. (2016, February 19). "Closing the capital drain from emerging markets". The Guardian. <https://www.theguardian.com/business/2016/feb/19/closing-capital-drain-emerging-markets-joseph-stiglitz>



oqimlarining erkinligi inqirozlarni kuchaytirashi, ular uchun makroprudensial choralar (masalan, kapital chiqishini vaqtincha to'xtatish) zarurligini, chunki global bozorlarning protsiklik xususiyati zaif institutlarni zaiflashtirishi atib o'tilgan. Ammo, yuqoridagi xulosalar ayni damdagi siyosiy vaziyatlar uchun mos kelmaydi. Qolaversa, hozirda rivojlanayotgan mamlakatlardagi investitsiya siyosatida ham xavfsizlikning ta'minlanishi va investitsion oqimning qo'llab quvvatlanishi yuqori darajaga chiqarilgani investitsiya uchun xavfsiz muhit ta'minlanganini isbotidir.

Umuman olganda, yuqoridagi adabiyotlar tahlilida, xorijlik olimlarning tadqiqotlari ayni vaqtlarda jahonda sodir bo'layotgan siyosiy va iqtisodiy vaziyatlarda kapitalni qayerga yo'naltirish xavfsiz va yuqori samara bera olishini, hamda rivojlanayotgan mamlakatlarda nima sababdan kapital chiqib ketayotganligini keng yoritgan bo'lsa-da, xavfsizlik darajasi va mamlakatda olib borilayotgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik islohotlar tendensiyasi yetarlicha o'rganilmagan. Bu esa mazkur masalani O'zbekiston sharoitida chuqurroq tadqiq etish zarurligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada muallif tomonidan ilmiy-nazariy tahlil, taqqoslash, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJA

Vaqt o'tib borgan sari moliyaviy terminlar va atamalar ham zamonga mos tarzda o'zgarib boraveradi. Hozirgi davrda kapital bozori va investitsiyasi haqida ko'plab ta'riflarni uchratishimiz mumkin, ular vaziyatga, tadqiqot turiga, holatga qarab farqlanadi. Ammo, umumiy tushunchani ajratib olish biroz mushkulligi bois avvalo tadqiqot mavzuiga aloqador ayrim tushunchalarga ta'rif bersak.

Kapital bozori – bu asosan qimmatli qog'ozlarni chiqarish va sotib olishda taqdim etiladigan o'rta muddatli (ikki yildan besh yilgacha) bank kreditlari va uzoq muddatli (o'n yildan ortiq) kreditlar bozoridir. U bozorni fond bozori deb ham atash mumkin, unda bo'sh turgan pul mablag'larini to'plash, ularni ssuda kapitaliga aylantirish, so'ngra uni ishlab chiqarish jarayonlari ishtirokchilari (banklar, korxonalar, firmalar, shuningdek mamlakat aholisi) o'rtasida taqsimlash munosabatlari; qimmatli qog'ozlar, korxonalarning aksiyalari hamda davlat obligatsiyalari bilan oldi-sotdi operatsiyalarini olib boradi. Pul kapitalining qayta taqsimlanishida ishtirok etadigan banklar, fond birjalari va moliya-kredit muassasalari majmuini o'z ichiga oladi. Kapital oqimi investitsion oqim deb ham atalib quyidagicha ma'noni anglatadi: moliyaviy resurslar yoki kapitalning bir joydan boshqasiga, bir mamlakatdan boshqa mamlakatga yoki bir soha va bozordan boshqa soha va bozorlarga o'tishi jarayonini ifodalaydi. Bu oqimlar iqtisodiyotda investitsiya qilish va ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslarning harakatini anglatadi. Investitsion oqimlar quyidagi turlarga bo'linishi mumkin. Ichki investitsiyalar – mamlakat ichidagi investitsiya oqimlari. Bular asosan korxonalar va kompaniyalar tomonidan amalga oshiriladi va ishlab chiqarish yoki boshqa faoliyatlarga yo'naltiriladi. Xalqaro investitsiyalar – mamlakatlar o'rtasidagi kapital oqimlari. Xalqaro to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar (FDI) yoki portfel investitsiyalari misolida ko'rish mumkin. Investitsion oqimlar bir qator omillar bilan shakllanadi, masalan: siyosiy barqarorlik va iqtisodiy sharoitlar, foiz stavkalari va valyuta kurslari, soliq tizimi va regulatsiya siyosati. Investitsiyalarning oqimi iqtisodiy o'sishga, yangi ish o'rinlarining yaratilishiga va yangi texnologiyalarning joriy etilishiga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin.⁷

Shuning uchun ham, xorijiy investitsiyalar oqimini oshirish uchun mamlakatdagi unga kerakli infratuzilma, eng asosiysi fond bozorining rivojlanganlik darajasiga e'tibor qaratish zarur. Xorijiy investitsiyalar oqimida faol bo'lgan mamlakatlarda investitsiyalar mamlakat iqtisodiyotida bir qancha muhim funksiyalarni bajaradi⁸:


- Kapitalning kirib kelishi. Xorijiy investitsiyalar qo'shimcha moliyaviy resurslar kirishini anglatadi, bu ko'pincha ichki kapitali taqchil bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlar uchun juda muhim ahamiyatga ega;
- Ishlab chiqarish quvvatlarining ortishi. To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar odatda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish yoki mavjud korxonalarni modernizatsiya qilish maqsadlari bilan birga keladi. Bu iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi, eng asosiylaridan biri bo'lgan yangi ish o'rinlari yaratishga va aholi turmush darajasini oshirishga olib keladi;
- Texnologiya va bilimlar almashinuvi (transformatsiyasi). Xorijiy kompaniyalar ko'pincha ilg'or texnologiya va boshqaruv tajribasini olib kelishadi, bu esa ishlab chiqarish samaradorligi va innovatsiyalarni yaxshilashga yordam beradi;

7 Abdusattarova Dilnoza Zuxriddinovna "Investitsion oqimning yalpi ichki mahsulot (yalpi hududiy mahsulot) ga ta'sirini statistik baholash" Jild: 04 Nashr: 02 (2025) www.mudarrisziyo.uz ISSN: 2992-8907

8 Abduraxmonov A.A. "Xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy mohiyati va uning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyati" Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil jurnali, 9-son 2024-yil, noyabr. Bet 36-43. <https://www.researchgate.net/publication/387038319>

- Soliq tushumlarining ortishi. Boshqa davlatda faoliyat yuritayotgan xorijiy kompaniyalar o'sha davlatga soliq to'laydi, bu esa davlat byudjeti daromadlarini oshiradi;
- Xalqaro aloqalarni mustahkamlash. Chet el investitsiyalari mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashga yordam beradi, bu esa eksport va importni diversifikatsiya qilishga, shuningdek, bir iqtisodiy qaramlikni kamaytirishga va integratsiyani kuchaytirishga yordam beradi.

Kapital investitsiyalari rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti uchun juda muhim hisoblangani bois, mamlakatlar kapitalni o'zlariga jalb etish uchun investorlarga bir qancha imtiyozlar taklif qilinadi. Buning sababi shundaki, rivojlanayotgan mamlakatlarda rivojlangan mamlakatlarga qaraganda investitsiyalarga ko'proq xavf tahdid soladi (1-rasm).




1-rasm. Investitsion qarorlarga ta'sir etuvchi omillar.

Manba⁹: Kuanishova Aydana Bakmirzayevnaning ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Pastroq foiz stavkalari investitsiyalarni rag'batlantiradi, chunki qarz olish yanada qulayroq bo'ladi. Aksincha, yuqori foiz stavkalari qarz olish narxini oshiradi, bu esa investitsiyalar kamayishiga potentsial ravishda ta'sir qiladi. Kuchli iqtisodiy o'sishni kutish korxonalarni kelajakdagi foyda olish potentsialiga ishongan holda kengaytirish va yangi korxonalarga sarmoya kiritishga undaydi, agar iqtisodiy o'sish sur'atlari past holatda bo'lsa, kiritilgan investitsiyaning rentabelligi tushib ketadi, bu esa kapitalistlar uchun foydaning kamayishi va investitsiyaning qaytmasligigacha olib kelishi mumkin. Soliq imtiyozlari, infratuzilmani rivojlantirish va me'yoriy-huquqiy baza kabi siyosatlar investitsiya qarorlariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Qo'llab-quvvatlovchi siyosat investitsiyalarni rag'batlantiradi, cheklovchi siyosat esa unga to'sqinlik qilishi mumkin. Iqtisodiy istiqbolga va kelajakdagi rentabellikka ishonch investitsiya qarorlarini qabul qilishda muhim o'rin tutadi. mamlakat siyosatidagi noaniqliklarning kamligi va qulay shart-sharoitlarga ega kuchli biznes muhitining shakllantirilganligi investitsiyalar kirishiga ijobiy ta'sir qiladi. Yangi texnologiyalar va innovatsiyalar yangi investitsiya imkoniyatlarini ochib, iqtisodiy o'sishni hamda rentabellikni oshirishi mumkin, chunki barcha sohalarida ushbu yutuqlarni yuqori samaradorlikni ta'minlay olishi sababli ham lardan foydalanishga intilishadi.

Yuqoridagi xavflar ko'pchilik mamlakatlarda mavjud bo'lib, doim ularga qarshi kurashib kelinadi. Biroq, hozirgi zamonda, hukumatlar siyosati keskin va noaniq tarzda o'zgarishi oqibatida xalqaro siyosiy keskinliklar va sanksiyalar ortib ketgani sababli, investorlar o'z sarmoyalarini xavfsiz deb bilgan rivojlangan tinch mamlakatlarga yo'naltirishmoqda. Bu esa, kapital oqimining tubdan o'zgarishi va natijada rivojlanayotgan mamlakatlarga kapital kirishi kamayib, chiqishi ortib borishi kuzatilmoqda. (2-rasm).



2-rasm. 2023-yil uchun rivojlanayotgan mamlakatlarda sof moliyaviy oqimlar

Manba: <https://data.one.org/analysis/net-finance-flows-to-developing-countries>

9 Kuanishova Aydana Bakmirzayevna "Investitsiya tushunchasi va uning iqtisodiy mohiyati". Ilm fan xabarnomasi elektron ilmiy jurnali, 6-son, sentyabr, 2024-yil, worldly knowledge nashriyoti, www.worldlyjournals.com



Ushbu grafikda rivojlanayotgan mamlakatlar bilan sodir bo'layotgan kapital oqimining harakati tasvirlangan. 2019 – yilda 100.85 mlrd dollar kapital aylangan bo'ldi, Covid-19 pandemiyasidan so'ng esa mavjud 3 yillik ma'lumotlarda tushish tendensiyasini kuzatishimiz mumkin, ya'ni, 2020-yilda 149.42 mlrd dollardan 2022-yilgi oqim hajmi 51.41 mlrd dollargacha tushgan. 2023-yilda 21.44 mlrd dollarlik manfiy ko'rsatkich bilan prognoz davri boshlangan bo'lib, 2025-yilda -17.87 mlrd dollar bilan yil oxirigacha musbatga prognozi kuzatilmagan. Bundan kelib chiqadiki, so'nggi 3 yilda rivojlanayotgan mamlakatlarga kapital oqimining kirish hajmidan ko'ra uning chiqish tendensiyasi ko'proqligini ko'rishimiz mumkin.

Amerikalik iqtisodchi, Nobel mukofoti laureati Paul Samuelsonning akselerator printsipidir (accelerator principle), "Interactions between the Multiplier Analysis and the Principle of Acceleration" va "A Synthesis of the Principle of Acceleration and the Multiplier"¹⁰ nomli maqolasida "investitsiyalar YaIM (Yalpi ichki mahsulot) o'sishiga bog'liq ravishda avtomatik ravishda o'sadi" degan g'oyani matematik model sifatida ifodalagan. Yuqoridagi statistik ma'lumotlarda esa siyosiy barqarorlik vaqtida rivojlanayotgan mamlakatlarga investitsiyalar oqimi kamayib ketganligini ko'rsatmoqda, ammo bir necha yildan keyin akselerator printsipi sababli ham investitsiyalarning katta qismi rivojlanayotgan mamlakatlarga qarab harakatlana boshlaydi.

Jahon "Global Economic Prospects" (iyun 2025 yilgi nashri) hisobotida¹¹ mamlakatlarning YaIM o'sish prognozlarini keltirgan (1-jadval).

1-jadval. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda YaIM o'sish (foizda)

Mamlakat	2022	2023	2024	2025*	2026*	2027*
O'zbekiston	6.0	6.0	6.0	6.2	6.0	5.9
Qozog'iston	3.2	4.5	5.0	5.5	4.5	3.9
Xitoy	3.0	5.0	5.0	4.5	4.0	4.0
Hindiston	7.2	8.2	6.8	6.3	6.5	6.7
Braziliya	3.0	2.9	3.4	2.4	2.2	2.3
Nigeriya	3.3	2.5	3.4	3.6	3.7	3.8
AQSh	2.1	2.5	2.8	1.4	1.6	1.9
Germaniya	1.8	-0.3	0.9	0.7	0.8	1.0
Yaponiya	1.0	1.7	0.2	0.7	0.8	0.8
Buyuk Britaniya	4.3	0.1	1.1	1.3	1.4	1.5
Kanada	3.8	1.1	1.2	1.6	1.7	1.8

* – prognoz.

Manba: Jahon bankining 2025-yil iyun oyidagi "Global Economic Prospects" hisobotidan.

Yuqoridagi jadvalda bizga turli darajada rivojlangan davlatlarning YaIM hajmining o'sish tendensiyalari keltirilgan. Masalan, 2028-yilgacha YaIM dagi o'sish sur'ati rivojlanayotgan mamlakatlarda 4-6% atrofida, rivojlangan mamlakatlarda esa 1-2% ga yaqin. O'zbekistonda 2022-yildan hozirgacha 6% atrofida iqtisodiy o'sish sur'atlari ko'rsatilgan, "Fuqarolar uchun byudjet: 2026 loyiha"¹²sida 2026-2028-yillarda 6.6-6.9 iqtisodiy o'sishga erishish prognoz qilingan. Shuni aytib o'tish lozimki, jadvaldagi prognozlar bazaviy ssenariyga asoslangan, ya'ni tariflar o'zgarish, inflyatsiya pasayishi, tashqi shoklar hisobga olinmagan. Xitoylik olimlar Xia Chen, Qiang Cheng, Ying Hao, Qiang Liu¹³ va Nguyen The Khang hamda Hung Thanh Nguyen¹⁴ larning maqolalarida iqtisodiy o'sish (4% va undan yuqori) baland bo'lgan mamlakatlarga investitsiyani kiritish foydali ekanligi hamda kelgusi davrlarda YaIM prognozi past (2% dan kam)bo'lsa investitsiyani kechiktirish tavsiya etilgan. Shu bilan birga, YaIM dagi 1% li o'sish investitsiya hajmini 0.5-1% ga oshirishi ko'rsatib o'tilgan.

Rivojlanayotgan mamlakatlarga kapital oqimining kirishidagi yana bir asosiy xavflardan biri, bu mamlakatning to'lov qobiliyatidir. Agar to'lov qobiliyati qay darajada past bo'lsa, investor kiritgan kapitalini

10 Samuelson, P. A. "Interactions between the Multiplier Analysis and the Principle of Acceleration." "The Review of Economics and Statistics", 21(2), 75–78. <https://www.jstor.org/stable/1927758>

11 World Bank. 2025. Global Economic Prospects, June 2025. Washington, DC: World Bank. doi:10.1596/978-1-4648-2193-6. <https://www.worldbank.org/en/publication/global-economic-prospects>

12 O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolar uchun byudjet: 2026 loyiha"si. Toshkent-2025 <https://openbudget.uz/boards/humans>

13 Xia Chen & Qiang Cheng & Ying Hao & Qiang Liu, 2020. "GDP growth incentives and earnings management: evidence from China," Review of Accounting Studies, Springer, vol. 25(3), pages 1002-1039, September. Handle: RePEc:spr:reaccs:v:25:y:2020:i:3:d:10.1007_s11142-020-09547-8 DOI: 10.1007/s11142-020-09547-8 https://ideas.repec.org/a/spr/reaccs/v25y2020i3d10.1007_s11142-020-09547-8.html

14 Nguyen The Khang va Hung Thanh Nguyen, "The Impact of Investments on Economic Growth: Evidence from Vietnam" DOI:10.13106/jafeb.2021.vol8.no8.0345 <https://www.researchgate.net/publication/353637145>



to'liqligicha qaytarib olishi shunday darajada xavf ostida qoladi. Biroq, ayrim rivojlanayotgan mamlakatlar, masalan O'zbekistonning himoya yostiqchasi yetarli darajada shakllanganligi bois to'lov qobiliyati yuqori. XVF ning prognozlariga ko'ra 2024-yilda o'sish 5,4 foizni, 2025-yilda esa 5,5 foizda o'sishini atrofida bo'lishi prognoz qilingan¹⁵.

O'zbekiston kapital bozorini jahon darajasida rivojlantirish maqsadida qator qonun islohotlari amalga oshirilgan. Jumladan, O'zbekistonda kapital bozorini rivojlantirish borasida 2023-yilda PQ-291-sonli¹⁶ qaror va shu kabi bir nechta farmonlar qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti: "O'zbekiston xorijiy investorlarga barcha sharoitlarni yaratib beradi, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlaydi va buni kafolatlaydi" -deb ta'kidlab o'tgan. Masalan: so'nggi 8 yilda mamlakat yalpi ichki mahsuloti ikki barobar ko'paydi. Bu ko'rsatkichni 2030-yilga borib 200 milliard dollarga yetkazish maqsad qilingan. 2024-yilda investitsiyalar hajmi 35 milliard dollarga, eksport esa 27 milliard dollarga yetgan, hamda oxirgi 5 yil ichida O'zbekiston Iqtisodiy erkinlik indeksida 48 pog'onaga, Garvardning Iqtisodiyot murakkabligi indeksida 28 pog'onaga ko'tarilganligi aytilgan¹⁷.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, izlanishlar natijasida so'nggi yillardagi siyosiy keskinliklar, digloballashuv va iqtisodiy xavflarning kuchayib borishi fonida kapital oqimining barcha rivojlanayotgan mamlakatlarga harakatlanishi uning yuqori xavf ostida qolishi ehtimoli yuqoriligi to'g'ri emas degan xulosaga kelindi.

Demak, yuqori iqtisodiy o'sishni barqaror ta'minlab kelayotgan, siyosiy hamjamiyat bilan yaxshi aloqalarni yo'lga qo'ygan, neytral va ijtimoiy sharoiti yaxshilanib borayotgan rivojlanayotgan davlatlarga investitsiya kiritish investorlar uchun eng muqobil tanlov hisoblanadi. Qolaversa, xalqaro tashkilotlarning kapital oqimi harakati va rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga bag'ishlangan ma'lumotlarida ham rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy o'sishi nisbatan yuqori darajada saqlanib qolishi va do'stona siyosat yuritishi bilan kelgusi yillarda investitsiyalar uchun qulay muhitga aylanishini tushunishimiz mumkin.

Maqola so'nggida rivojlanayotgan mamlakatlarga xorijiy investitsiyalarni yanada ko'proq jalb qilish uchun quyidagi takliflar berishimiz mumkin:

- Mamlakatda investorlar huquqlarini mastahkamlash;
- Xalqaro savdoda diversifikatsiyani ta'minlash (xalqaro bozorlarga chiqish);
- Barqaror valyuta siyosatini yuritish va valyuta zaxiralarini ko'paytirish;
- Innovatsion muhitni rivojlantirish va malakali kadrlarni xalqaro darajada tayyorlash tizimini tashkil etish;
- "O'zbekiston — 2030" strategiyasida kapital bozorini rivojlantirish va investitsion jozibadorlikni oshirishga qaratilgan maqsadlarni amalga oshirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. International Monetary Fund. 2025. Global Financial Stability Report: Shifting Ground beneath the Calm. Washington, DC, October. <https://www.imf.org/-/media/files/publications/gfsr/2025/october/english/text.pdf>
2. International Monetary Fund. 2024. Republic of Uzbekistan: 2024 Article IV Consultation-Press Release; and Staff Report, Publication Services PO Box 92780, Washington, D.C. 20090 <https://www.imf.org/en/publications/cr/issues/2024/07/11/republic-of-uzbekistan-2024-article-iv-consultation-press-release-and-staff-report-551710>
3. World Bank. 2025. Global Economic Prospects, June 2025. Washington, DC: World Bank. doi:10.1596/978-1-4648-2193-6. <https://www.worldbank.org/en/publication/global-economic-prospects>
4. Prasad, E. S., Rajan, R. G., & Subramanian, A. (2007). Foreign capital and economic growth. *Brookings Papers on Economic Activity*, 38(1), 153–230. <https://www.piie.com/sites/default/files/publications/papers/subramanian0407.pdf>
5. Acemoglu, D., & Robinson, J. A. (2012). *Why nations fail: The origins of power, prosperity, and poverty*. New York: Crown Business. https://www.researchgate.net/publication/254939196_Why_Nations_Fail_The_Origins_of_Power_Prosperty_and_Poverty_review
6. Stiglitz, J. E. (2017). "Globalization and Its Discontents Revisited". New York: W. W. Norton & Company. <https://cgt.columbia.edu/research/books/archive/globalization-discontents-revisited/>
7. Stiglitz, J. E., & Rashid, H. (2016, February 19). "Closing the capital drain from emerging markets". *The Guardian*. <https://www.theguardian.com/business/2016/feb/19/closing-capital-drain-emerging-markets-joseph-stiglitz>
8. Samuelson, P. A. "Interactions between the Multiplier Analysis and the Principle of Acceleration." "The Review of Economics and Statistics", 21(2), 75–78. <https://www.jstor.org/stable/1927758>

15 International Monetary Fund. 2024. Republic of Uzbekistan: 2024 Article IV Consultation-Press Release; and Staff Report, Publication Services PO Box 92780, Washington, D.C. 20090 <https://www.imf.org/en/publications/cr/issues/2024/07/11/republic-of-uzbekistan-2024-article-iv-consultation-press-release-and-staff-report-551710>

16 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.09.2023 yildagi PQ-291-son "Kapital bozorini rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-6590025>

17 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev, 2025-yil 10-iyun, Xalqaro kongress markazida to'rtinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumining yalpi majlisi. <https://president.uz/oz/lists/view/8202>



9. Xia Chen & Qiang Cheng & Ying Hao & Qiang Liu, 2020. "GDP growth incentives and earnings management: evidence from China," *Review of Accounting Studies*, Springer, vol. 25(3), pages 1002-1039, September. Handle: RePEc:spr:reaccs:v:25:y:2020:i:3:d:10.1007_s11142-020-09547-8 DOI: 10.1007/s11142-020-09547-8 https://ideas.repec.org/a/spr/reaccs/v25y2020i3d10.1007_s11142-020-09547-8.html
10. Nguyen The Khang va Hung Thanh Nguyen, "The Impact of Investments on Economic Growth: Evidence from Vietnam" DOI: [10.13106/jafeb.2021.vol8.no8.0345](https://doi.org/10.13106/jafeb.2021.vol8.no8.0345) <https://www.researchgate.net/publication/353637145>
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-6600413>
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.09.2023 yildagi PQ-291-son "Kapital bozorini rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-6590025>
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev, 2025-yil 10-iyun, Xalqaro kongress markazida to'rtinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumining yalpi majlisi. <https://president.uz/oz/lists/view/8202>
14. O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolar uchun byudjet: 2026 loyiha"si. Toshkent-2025 <https://openbudget.uz/boards/humans>
15. Abdusattarova Dilnoza Zuxriddinovna "investitsion oqimning yalpi ichki mahsulot (yalpi hududiy mahsulot) ga ta'sirini statistik baholash" Jild: 04 Nashr: 02 (2025) www.mudarrisziyo.uz ISSN: 2992-8907
16. Abduraxmonov A.A. "Xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy mohiyati va uning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyati" Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil jurnali, 9-son 2024-yil, noyabr. Bet 36-43. <https://www.researchgate.net/publication/387038319>
17. Kuanishova Aydana Bakmirzayevna "Investitsiya tushunchasi va uning iqtisodiy mohiyati". Ilm fan xabarnomasi elektron ilmiy jurnali, 6-son, sentyabr, 2024-yil, worldly knowladge nashriyoti, www.worldlyjournals.com

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

1-Maxsus son.

Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100